

ANDIJON VILOYATIDA TURIZM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



2021-YIL YAKUNI BO'YICHA

TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

BOZOR IQTISODIYOTIDA TURIZM XIZMATI

Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.

Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros ob'yektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi rolga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda - bularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.



TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA 2021-YILDA TURIZM STATISTIKASI

Bugungi kunda Andijon viloyatida iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida sanalayotgan turizmni o'rganish va uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Andijon viloyatning tumanlari ichidan turizm xizmatiga ixtisoslashtirish mumkin bo'lganlari aniqlanilib, turizm sohasining qanday turlarini ularga tadbiq etish va rivojlantirish bo'yicha bir qator samarali ishlar olib borilmoqda.

Andijon viloyatida aholi zichligining yuqoriligi hamda ularni qadimdan o'troq hayot kechirganligi turizmning bir qator turining rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Xususan, arxeologik turizm, ziyorat turizmi, ekoturizm, etnografik turizm, biznes turizm, agroturizm, gastronomik turizm kabi yo'nalaishlarni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Shuningdek milliy hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanganligi tashrif buyurayotgan sayyohlarda yanada qiziqish uyg'otmoqda




Jamoaviy joylashtirish vositalari soni	40
Mehmonxonalar soni	21
Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni	19
Turistik firmalar soni	3

TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida 2021-yilda mamlakatimiz bo'ylab jami 20559,2 ming safar amalga oshirilgan. Ulardan 66,7 % safarlar tuman (shahar) ichida, 31,6 % safarlar tuman (shahar) dan tashqarisida, lekin hudud ichida va 1,6 % safarlar hududdan tashqarida amalga oshirilgan.



TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

SAFAR DAVOMIDA FOYDALANILGAN TRANSPORT TURLARI, (ming safar)

Andijon viloyati fuqarolari tomonidan 2021-yil davomida mamlakatimiz bo'ylab 20559,2 ming safar amalga oshirilgan. Ulardan 74,2 % safarlar avtomobil yo'llari orqali, 25,6 % safarlar shaxsiy avtomobillar orqali va qolgan 0,2 % safarlar temir yo'l transporti xizmatidan foydalanilgan holda amalga oshirilgan.



Amalga oshirilgan jami
safarlar soni

20559,2

Avtomobil yo'llari orqali

15257,2

Temir yo'llari orqali

47,5

Shaxsiy avtomobillar orqali

5254,5

TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

TURISTIK FIRMA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Andijon viloyatida 2021-yilda turistik faoliyat bilan shug'ullangan tashkilotlar soni 3 tani tashkil etdi. Ular tomonidan 61 nafar tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatilgan. Jami sayyohlardan 30 nafar turistlar xorijiy mamlakatlarga jo'natildi.

Turistik firmalar tomonidan yil davomida 30 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, ulardan 10 tasi chet el mamlakatlari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga va 20 tasi O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga.



TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA JAMOAVIY JOYLASHTIRISH VOSITALARI FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2021-yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni 40 ta bo'lib, ulardan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 21 ta va ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni 19 tadan iborat.

Jamoaviy joylashtirish vositalaridagi ob'ektlar soni 52 tani tashkil etgan. Ulardagi nomerlar (xonalar) soni 1165 ta bo'lib, joylar soni 3038 nafar sayyohlarga qabul qilishga mo'ljallangan.

Yil davomida ularga 77658 nafar fuqarolar joylashtirilgan bo'lib, ulardan 69 046 nafari O'zbekiston Respublikasi, 4 679 nafari MDH davlatlari fuqarolari va qolgan 3 933 nafari uzoq xorijiy davlat fuqarolari hisoblanadilar.

Ob'ektlar soni,
(birlik)

52

Nomerlar soni,
(birlik)

1 165

Joylar soni,
(birlik)

3 038

**Joylashtirilgan
shaxslar soni, (kishi)**

77 658

**Jami jamoaviy
joylashtirish
vositalari soni
40 ta**

TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

MEHMONXONA VA SHUNGA O'XSHASH JOYLASHTIRISH VOSITALARI FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2021-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 21 tadan iborat bo'lib, ulardagi ob'ektlar soni 23 tani tashkil etadi. Mehmonxonadagi nomerlar fondi (xonalar) soni 612 ta bo'lib, ulardagi ajratilgan joylar soni 1 134 nafar sayyohlarni qabul qilishga mo'ljallangan.

Yil davomida mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga jami 46 663 nafar fuqarolar tashrif buyurgan.

MEHMONXONA VA SHUNGA O'XSHASH JOYLASHTIRISH VOSITALARIGA JOYLASHGAN SHAXSLAR SONI, (mingkishi)



46,7 Joylashtirilgan shaxslar soni

38,9 O'zbekiston Respublikasi

3,9 MDH mamlakatlaridan

3,9 Uzoq xorijiy davlatlardan



TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

MEHMONXONA VA SHUNGA O'XSHASH JOYLASHTIRISH VOSITALARI SONI, (birlik)

Andijon viloyati

21

Andijon shahar

17

Xonobod shahar

1

Andijon tumani

2

Qo'rg'ontepa tumani

1



Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositali soni 21 tadan iborat bo'lib, ulardan 17 tasi viloyat markazi Andijon shahrida joylashgan.

Yil davomida ularga jami 46 663 nafar sayyohlar joylashgan bo'lib, ulardan 44 802 nafari yoki 96,0 % Andijon shahridagi mehmonxonalarga joylashgan.


Ma'lumot uchun



Tashrif buyuruvchi – bu o'zining odatiy muhitidan biror-bir belgilangan asosiy joyga, tashrif buyurayotgan mamlakatda yoki joyda ro'yxatga olingan korxonaga ishga joylashish maqsadlaridan tashqari, har qanday asosiy maqsadni (xizmat safari, dam olish yoki boshqa shaxsiy maqsad) ko'zlab, bir yildan kam bo'lgan muddatga safarni amalga oshiruvchi sayohatchi.

TURIZM VA DAM OLIISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

SAFAR MAQSADLARI BO'YICHA MEHMOMXONA VA SHUNGA O'XSHASH JOYLASHTIRISH VOSITALARIGA JOYLASHGAN SHAXSLAR SONI, (kishi)



2021-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga jami 46 663 nafar sayyohlar joylashtirilgan. Sayyohlarning 78,9 % o'zlarinig shaxsiy maqsadlari bo'yicha va qolgan 21,1 % ish yuzasidan yoki kasbga oid maqsadlar boyicha tashrif buyurganlar.

Sayyohlarning 83,3 % O'zbekiston Respublikasidan, 8,3 % ni MDH mamalakatlaridan va qolgan 8,4 % uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyurganlar.

TURIZM VA DAM O'LISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

MEHMONXONA VA SHUNGA O'XSHASH JOYLASHTIRISH VOSITALARI SONI, (birlik)

Andijon viloyatida 2021-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 21 ta iborat bo'lib, ulardan 20 tasi kichik biznes sub'yektlari hisoblanadi. 2017-yil bilan taqqoslaganda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 3 taga ortgan.


Jami mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalidan 5 tasi bir yulduzli, 3 tasi uch yulduzli va qolgan 13 tasi toifaga ega emas.



TURIZM VA DAM O'LSH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

MEHMONXONA VA SHUNGA O'XSHASH JOYLASHTIRISH VOSITALARI XODIMLARI SONI

Andijon viloyatida 2021-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida xizmat qilayotgan xodimlar soni 261 nafardan iborat bo'lib, ulardan 132 nafari yoki 50,6 % ni ayollar tashkil etadi. Jami xodimlardan 49 nafari oliy ma'lumotga ega, hamda ulardan 6 nafari kasbiy sayyohlik ma'lumoti bo'yicha ta'lim olgan. Qolgan 185 nafari o'rta maxsus ma'lumotiga ega bo'lgan xodimlar hisoblanadilar.



- Mehmonxona ma'murlari
- Boshqalar
- Menejerlar
- Bar va restoran xodimlari
- Sheysar va oqsochlar

TURIZM VA DAM Olish RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

IXTISOSLASHTIRILGAN JOYLASHTIRISH VOSITALARI VOSITALARI FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2021-yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni 19 ta bo'lib, ob'ektlar soni 29 tani tashkil etadi. Ulardagi nomerlar (xonalar) soni 553 ta bo'lib, joylar soni 1904 nafar sayyohlarni qabul qilishga mo'ljallangan. Yil davomida ularga jami 31,0 ming nafar fuqarolar joylashtirilgan. Sayyohlardan 30,2 ming nafarini O'zbekiston Respublikasi va qolgan 0,8 ming nafari MDH mamalakatlarining fuqarolari hisoblanadilar.



TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

IXTISOSLASHTIRILGAN JOYLASHTIRISH VOSITALARI FAOLIYATI

	Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni, (birlik)	Nomerlar soni, (birlik)	Joylashtirilgan fuqarolar soni, (ming kishi)
Andijon sh	8	193	15,1
Xonobod sh	2	35	1,4
tumanlar:			
Andijon	3	193	3,3
Asaka	1	21	0,4
Baliqchi	2	46	9,9
Marxamat	1	20	0,2
Shahrixon	1	25	0,5
Paxtaobod	1	20	0,2

Andijon viloyatida 2021-yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni 19 tadan iborat. Ulardan 8 tasi viloyatning markazi Andijon shahrida joylashgan. Tashrif buyurgan jami 31,0 ming nafar sayyohlarning 15,1 ming nafari yoki 48,7 % ham Andijon shahrida joylashganlar. Ulardan 14,3 ming nafari O'zbekiston Respublikasi va qolgan 0,8 ming nafari MDH mamlakatlari fuqarolari hissasiga to'g'ri keladi.

TURIZM VA DAM O'LISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

IXTISOSLASHTIRILGAN JOYLASHTIRISH VOSITALARIGA JOYLASHGAN SHAXSLAR SONI, (kishi)

Andijon viloyatida 2021-yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalariga jami 30 995 nafar fuqarolar joylashtirilgan. Ulardan 2 804 nafari katta yoshlilar uchun sanatoriyalarga, 4 721 nafari bolalar uchun sanatoriyalarga, 680 nafari sanatoriya-profilaktoriya joylariga, 203 nafari kempinglarga va qolgan 22587 nafar fuqarolar boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalariga joylashtirilgan. Joylashtirilgan fuqarolar tomonidan tunab qolishlar soni 237 356 kundan iborat

Jami joylashtirilgan
fuqarolar soni

30 995

O'zbekiston Respublikasi
fuqarolari soni

30 166

MDH davlatlari
fuqarolari soni

829




TURIZM VA DAM OLIH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

IXTISOSLASHTIRILGAN JOYLASHTIRISH VOSITALARI XODIMLARI SONI, (kishi)

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida xizmat qilayotgan xodimlar soni jami 535 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etadi. Jami xodimlarning 375 nafari yoki 70,1 % ayollar hissasiga to'g'ri keladi.

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida xizmat qilayotgan xodimlardan 118 nafari yoki 21,1 % oliy ma'lumotga ega va qolgan 334 nafar ishchi xodimlar o'rta maxsus ma'lumotga egadirlar.



TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Statistikaga oid eslatmalar

Turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

Turist – vaqtinchalik yashash mamlakatiga (joyiga) ketma-ket yigirma to'rt soatdan o'n ikki oygacha bo'lgan muddatda vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan yoki kamida bitta vaqt davomida borgan jismoniy shaxs. vaqtincha yashash joyida (joyiga) tunash.

Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o'z ichiga oladi.

Chiqish turizmi ko'rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Mehmon (ziyoratchi) – boshqa davlatga o'z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko'zlab kelgan shaxs.

Do'stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do'stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to'ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g'amxo'rlik va boshqalar.

Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to'lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o'quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish, jumladan, pullik o'qish, til o'rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta'tillar va hokazolar kiradi.

Davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari – Ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriylardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko'rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

Ishga doir va kasbiy maqsadlar – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda rezident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo'lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.

Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:



**Andijon viloyati
statistika boshqarmasi**




Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



www.andstat.uz



**Manzil: Andijon shahar,
Milly Tiklanish ko'chasi-36-a**



andtata@mail.uz



Телефон: (74) 224-82-69

